

18-MODUL: BOLALARDA FAZOVIY TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH

Dars o'quv maqsadi: Talabalarga bolalarni fazoviy tasavvurlarini shakllantirish yuzasidan tushuncha hosil qilish.

Tayanch so'zlar va iboralar: Fazo, maktabgacha ta'lim, o'ng chab, oldi – orqaga, baland – past

Reja:

1. Katta gurux bolalarida fazoda mo'ljal olish tushunchasining mazmuni
2. 6-7 yoshli bolalarni fazoda mo'ljal olishga o'rgatish.

Katta guruh.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning fazoviy tasavvuri faoliyatning hamma turlari jarayonida kengayadi va mustahkamlanadi. Mashg'ulotlar tarkibiga fazoda mo'ljal olishga doir maxsus mashqlarning kiritilishi ham bunga imkoniyat beradi. Maslan, tarbiyachi bolalarga chapda eng baland, o'ngda eng past buyum turadigan qilib, buyumlarning kattaliklari bo'yicha yoyishni taklif qiladi, yoki uning o'zi stolga o'yinchoqlarni (it, mushuk, sigir, qo'y, quyon) joylashtiradi va bolalarga murojaat qiladi: "Sigirning yonida nima turganini qarang va ayting. Mushukdan chapda nima turibdi? Qo'y qaysi hayvonlar orasida turibdi?" So'ngra tarbiyachi o'yinchoqlarni biri – birining orqasida turadigan qilib aralashtirib qo'yadi va so'raydi. "Nima birinchi ketmoqda? Nimadan keyin mushuk ketmoqda? Nimadan oldinda sigir ketmoqda? Qo'ydan keyin nima ketmoqda?" va h.q

Bolalar atrofdagi buyum orasida o'z holatlarini aniqlaydigan mashqlar ham samarali: "Stolning orqasida turibman, stolning yonida, deraza oldida turibman".

Katta guruhda maktabgacha yoshdagi bolalar qog'oz varag'ida mo'ljal olishga o'rgatila boshlanadi. Oldingi guruhlarining dasturlarida bunday vazifa yo'q edi. Tarbiyachi rahbarligida bolalar ma'lum miqdorligi buyumlarni ko'rsatilgan yo'nalishda; qog'oz varag'ining yuqori, pastki qismiga, chap qismiga, o'ng qismiga joylashtirish malakasini egallaydilar. Bunday topshiriqlar ham bo'lishi mumkin: varaqning chap qismiga 5 ta doiracha; o'ngiga esa 1 ta ortiq doiracha qo'y; varaqning pastki va ustki qismlariga 8 tadan uch burchak joylashtir. Topshiriqni bajarganidan keyin bola qanday figuralardan nechtasini joylashtirganini va qayerlarga joylashtirganini gapirib beradi. Bolalarni buyumlarning qog'oz qarag'idagi, stoldagi, poldagi holatini belgilash uchun so'zlarni to'g'ri, ma'nosi bo'yicha ishlatishga o'rgatish kerak.

Yil oxiriga kelib bolalar o'zlariga, boshqa odamlarga nisbatan o'rnini so'zlar bilan ifodalay oladigan bo'lishlari kerak.

Ifodalangan qoidani tarbiyachi ochib berishga va to'ldirishga harakat qiladi. Katta guruhlarda eng oldin asosiy yo'nalishlarni hisobga olgan holda fazoda tez mo'ljal olish tajribasini istiqbolda takomillashishi ta'minlanishi kerak. Topshiriqlar xarakteri tobora qiyinlasha boradi. Bajarish sur'ati ortadi, Tarbiyachi, "Paketni top", "Bayroqchani top", "Razvedkachilar" kabi didaktik o'yinlarda bir yoki ikki yo'nalishni birining ketidan birini ketma –ket topishnigina emas, balki birdaniga bir qancha (beshtagacha) yo'nalishni topishni taklif qilishi mumkin, masalan, "Qayin daraxtigacha to'g'ri bor; o'nga burilib, besh qadam yur; chapga buril, yana uch qadam yur; orqaga buril (aylan)". Yurish, yugurish jismoniy tarbiya va musiqa mashg'ulotlarida, harakatli o'yinlarda, badantarbiya daqiqalarida va ertalabki gimnastikada harakat yo'alishini tez o'zgartirish kabi mashqlardan keng foydalaniladi.

Fazoda mo'ljol olish mashqlari bolalarda yo'l harakati qoidalarini haqidagi bilimlarni shakllantirish ishi mazmuniga ham kiritiladi. Katta guruhda fazoda tez mo'ljol olish tajribasi ham rang –barangdir: “Ko'z bog'lash” o'yinlari juda murakkab topshiriqdir – nishongacha berk ko'zlar bilan borish talab qilinadi (“Toychaga yem ber”, “Barabanga taq –taq urish” o'yinlari). Bu vazifa ustida ishlash dasturning bolalarning fazoviy munosabatlar haqidagi bilimlarini kengaytirish talabi kabi (“chapdan”, “o'ngdan”, “yuqorida”, “pastda”, “oldida”, “orqasida”, “orasida” doimo diqqat markazda turmog'i kerak.

Ma'lumki, bolalar buyumlar orasidagi fazoviy munosabatlarni fraqlashning dastlabki tajribasini kichik va o'rta guruhlarda olganlar. Katta guruhda bu bilimlarni kengaytirish, sistemalashtirish masalasi, bolalarni o'yin materiallaridagina mo'ldal olishgagina emas, balki atrofda real sharoitda ham mo'ljol olishga o'rgatish vazifasi qo'yiladi. Mana shuning uchun ham bu yosh guruhida bunday topshiriqlardan foydalanish ma'qul, u yoki bu buyum qayerda hamda u boshqa buyumlarga nisbatan qanday joylashgan? Masalan, qurilish materiallari qo'yilgan shkaf eshikdan chap tomonda turibdi: eshik bilan shkaf orasiga rasm osib qo'yilgan; kitob burchagi shkaf qarshisida derazalar orasiga joylashtirilgan va h.q Maxsus didaktik o'yinlarda (“Qo'g'irchoqqa mebellarni joy –joyiga qo'yishga yordam bering”, “Nima qayerda turibdi?” va h.q) real buyum muhitning bunday fazoviy –og'zaki tavsiflari ham tekislikda mo'ljol olish kabi besh yoshli bolalarga to'la mos keladi.

Maktabgacha yoshga yetguncha bolalarda tekislikda mo'ljol olishga doir bilim va malakalarning ma'lum miqdordagi tajribasi to'planadi. Bolalar varaq teksiligida uning o'rtasini, burchaklarini, chekaalarini yoki tekislikni chegaralovchi tomonlarini bemalol ajrata oladilar; varaqning ustki yoki ostki (yuqori va quyi) chap va o'ng qismlarini ajrata oladilar. Bolalar asosiy fazoviy yo'nalishlarni hisobga olgan holda tekislikda mo'ljol ola biladilar. Bu malakalarni ular hali kichik va o'rta guruhlardayoq doimo egallashgan. Hozirgi bosqichning asosiy vazifasi bu tajribani mustahkamlash, chuqurlashtirishdan iborat. Bunday mashqlar foydali: buyumlar tasvirlangan rasmlar varag'i tekisligida kichki o'yinchoqlarni, geometrik figuralarning modellarini joylashtirish. Bu topshiriqlarni bajarganlaridan keyin bolalar obyektlarning tekislikda va bir – biriga nisbatan joylashuvlarini mustaqil ravishda tavsiflab berishlari kerak (masalan, qizil doiracha varaqning o'rtasida uchburchaklar orasida turibdi, sariq uchburchak doirachadan chapda, ko'k uchburchak esa, undan o'ng tomonda turibdi).

Ish mazmunidagi yangi eyelement -oraliq yo'nalishlarni bilishdan iborat. Bola tekislikda oriyentir (mo'ljol) olganidan keyin, uning har bir alohida elementini yoki qismini (burchagi, tomoni, uning biror qismi) yanada aniqroq aytishi mumkin. Endi varaq tekisligining to'rttala burchagining har bir xususiy tavsif oladi: ustki o'ng burchak, ustki chap burchak, pastki chap burchak va h.q Varaq sirtida, masalan, markazdan balandda (tepada) yoki markazdan pastda (quyida) joylashgan yana ikkita qismni o'ng va chap qismni ajratish mumkin; varaq sirtining to'rtta qismining har biri ikki yoqlama, ya'ni ustki o'ng qism yoki pastki chap qism kabi, fazoviy tavsif oladi. Fazoda mo'ljol olish malakalarini qiyinlashtirish shart – sharoitlariga besh yoshli bolalarning bilimlari bemalol yetadi, ammo bunda bitta shart bajarilishi zarur: elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg'ulotlarida didaktik o'yinlardan, qiziqarli mashqlardan keng foydalanish kerak. Va, nihoyat, oxirigisi: bolalarga faqat “o'zidan” emas, balki boshqa odamga, boshqa buyumlarga nisbatan mo'ljol olishga o'rgatish haqida. O'quv – o'yin topshiriqlari – o'rtog'ining o'n tomoni yoki chap tomoniga turish, undan oldinda yoki orqada turish, ko'rsatilgan buyumga nisbatan o'zining fazodagi o'rnini tavsiflab berish;

ko'rsatilgan oriyentirga nisbatan bir yoki bir necha buyumni joylashtirish – bolalarning bu malakalarni muvaffaiyatli o'zlashtirishlariga yordam beradi.

Tayyorlov guruhi.

Maktabgacha tayyorlov guruhida bolalarning harakat yo'nalishida ularning o'zi va buyumlar orasidagi, buyumlarning o'zi orasidagi fazoviy munosabatlarda, shuningdek, qog'oz varag'ida (teksilikda) mo'ljal olish malakalari rivojlantiriladi va mustahkamlanadi. Bolalar bilan ishlash metodikasi "chapdan – o'ngdan", "ustida – ostida" kabi qarama-qarshi yo'nalishlarni ajratishga asoslanishi kerak.

Bolada qog'oz varag'ida mo'ljal olish malakalarini shakllantirish uchun bunday topshiriq beriladi: varaqning yuqori chekkasiga 4 ta varaqcha va pastki chekkasiga shuncha gulcha qo'yish. Shundan keyin tarbiyachi bolalarga nima qayerda yotganini gapirib berishni taklif qilishi mumkin. Bundan keyin topshiriqlarning murakkabroq variantlaridan 9figuralar miqdorini orttirish, ular o'rinlarini almashtirish va h.q) foydalanish maqsadga muvofiq. Shuningdek, "kim eslab qoladi?", "nima o'zgardi?", "Nimalari bilan farq qiladi?", "Juft kartochkalar" kabi o'yinlarni o'tkazish tavsiya qilinadi.

Bunday topshiriqlarni o'tkazish metodikasi haqida fikr yuritamiz.

Olti yoshli bolalar "o'ziga" nisbatan to'la ishonch bilan mo'ljal oladilar. Ammo hali ularning ko'pchiligi buyumlarning, boshqa odamlarning o'ng va chap tomonlarini farq qilishda qiynaladilar. Ularni, masalan, o'zi tomoniga yuzi bilan aylangan o'rtog'ining o'ng qo'li uning chap qo'li qarshisida bo'lish holi ajablantiradi.

Nega bunday bo'ladi? Oldingi ish natijasida bolada quyidagi bilim va malakalarning puxta stereotipi (andozasi) yig'ilib qoladi: o'ngda (o'ngroqda, o'ngga), o'ng qo'l turgan tomonda bo'ladi. Bu fazo "o'zidan" mo'ljal olishda mutlaqo to'g'ri. Ammo endi vaziyat o'zgardi. "Bolaga boshqa odamdan yoki boshqa buyumlardan mo'ljal olish taklif qilinadi. Demak, munosabat nuqtasi subyektning o'zidan tashqarida belgilanadi. Bu yerda oldinga tajriba fazoviy vaziyatlarning yangi variantlari bilan ziddiyatlikka kirishgandek bo'ladi. Haqiqatda esa, masalan, bola o'zi bilan juft bo'lib turgan. Malik o'zidan o'ng tomonda turganini yaxshi biladi. Bu endi odat, oddiy haqiqat. Ammo teskari fazoviy munosabatlarni (chunonchi, "Agar Malik mendan chap tomonda turgan bo'lsa, u holda men undan o'ng tomonda turgan bo'laman") tushunish tayyorlov guruh bolalari uchun ham unchalik oson emas. Bu yerda "boshqa odamga nisbatan" mo'ljal olish vaziyati mavjud. Buni to'g'ri tahlil qilish uchun bola eng oldin o'rtog'ining o'ng va chap qo'li (tomoni) ni aniqlashi kerak. Katta guruhda bolalar bu malakani egallab olishgan, endi esa shu malaka puxta va ustivor ko'nikma bo'lishi kerak.

Olti yoshli bolalar o'ng va chap tomonni boshqa odamga nisbatan aniqlashni xuddi o'ziga nisbatan o'ng va chap tomonni aniqlagandek aniqlashini yaxshi tushunib olmoqlari kerak (chap tomon o'ng qo'l turgan tomonda, o'ng tomon chap qo'l turgan tomonda) aniqlashning samali usuli xayolan o'rtog'ining orqasiga turishdan iboratdir. Shunday qilib, "yuzi bilan orqasiga" boshlang'is holatidan, ya'ni bola sharto'lining orqasida turgan holatida boshqa odamga nisbatan o'ng va chap tomonni aniqlash kerak, shundan keyin "yuzmayuz" holatida, ya'ni boshqa bola qarshisiga turib, "o'ng-chap"ni farqlash kerak. Keyinroq esa har qanday boshlang'is holatda, hatto o'rtog'i orqasi bilan turganda ham, "o'ng –chap" tomonlar aniqlanadi.

Katta guruh bolalari fazoviy yo'nalishlarning asosiy guruhlarini muvaffaiyatli farqlay oladilar. Ular bu bilimlardan atrof fazoda va gorizontal tekislikda mo'ljal olishda bemalol foydalana oladilar. Kichki yoshdagi guruhda ularga oraliq yo'nalishlar ("o'ngdan oldinda", chapdan oldinda") tanishtirilgan, ammo amalda qo'llashni bittagina vaziyat – varaq tekisligida mo'ljal olish bilan chegaralanilgan edi. Maktabgacha tayyorlov guruhida

bu ish davom ettiriladi. Chunonchi, bolalar atrofdagi fazoda (guruh xonasi, zal, uchatka) mo'ljallab olib, endi guruh xonasi yuzining oldingi o'ng qismini, yoki oldingi chap qismni ajrata oladilar, orqadagi o'ng burchakni, yoki chap burchakni aniqlab oladilar va h.q shu fazo chegarasida mavjud har bir buyumga imkon boricha aniq fazoviy – og'zaki tavsif beriladi. Yoki ular o'yinchoq mashinani (toychoqni, kuchukchani, ayiqchani) qaror ekanlar, har bir g'ildirakni (oldingi o'ng yoki oldingi chap, orqadagi o'ng yoki chap g'ildirak) ajratib va tavsiflab bera oladilar. Fazoviy yo'nalishlarni, shuningdek, oraliq yo'nalishlarni hisobga olib, mo'ljallab olish tajribasi ham ancha o'zgaradi. "buyumlardan" mo'ljallab olishga oid topshiriqlar miqdori asta –sekin ortadi. Topshiriqlarni bajarish sur'ati va sifatiga nisbatan talabalar ortadi. Ko'p mashqlar musobaqa elementlarini o'z ichiga oladi (topshirqini kim tezroq, aniqroq bajaradi) shunday qilib, maktabga tayyorlov guruhida murakkablashtirish elementlari va ba'zi yangi topshiriqlar amalga oshirila boradi.